KEYS –STADI (inglizcha “case”-to‘plam, aniq vaziyat, ”study”- ta’lim) keysda bayon qilingan va ta’lim oluvchilarni muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muvofiq tarzdagi yechimi variantlarini izlashga yo‘naltirilgan aniq real yoki sun’iy ravishda yaratilgan vaziyat tahliliga asoslanadigan ta’lim uslubidir.

Keys-stadi metodining asosiy xususiyatlari: o‘quvchilarda ijtimoiy yetuklikni ta’minlaydi; darsga qiziqish va motivlarni hosil qiladi; muammoli vaziyatni o‘zi baholaydi va tahlil qiladi; o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma, malakalarini shakllantiradi va rivojlantiradi; darsning samaradorligini oshiradi.

Biz quyida keys-stadi metodini qo'llab 8-sinf „Ichki sekretsiya bezlarining tuzilishi, joylashishi va vazifalari bilan tanishish” mavzusini ko‘rib o’tamiz.



Ichki sekretsiya bezlari organizmda muhim vazifani bajarib, ular tananing turli qismlarida joylashgan. Bezlardan ajraladigan suyuqlik-gormon organizmda moddalar almashinuvini normal borishini ta’minlaydi. Bu gormonlarning normadan ortiqcha yoki kam ishlab chiqarilishi u yoki bu kasallikni keltirib chiqaradi. Bularga quydagilarni keltirish mumkin: akromegaliya, gigantizm, nanizm (gipofizar pakanalik), buqoq, tireotoksiskoz, o’sma kasalliklari.

1-keys topshirig'i. VAZIYAT. Barnoning onasi o’smir qizining ancha vaqtidan buyon asabiy bo‘lib oddiy holatda ham tez jahli chiqishi, atrofdagilarga qo‘rs muomala qilayotganligini, ishtahasi yo‘qligi sababli ozib ketayotganini, ko‘p terlayotganini ayniqsa qo‘l kaftini terlayotganini sezib qoldi. Va bu vaziyatda qaysi shifokorga murojaat qilishga o‘ylanib qoldi. Siz bu holatda qanday yo‘l tutgan bo‘lar edingiz?

O‘quvchilar bilimini oshirish uchun savollar:

1. Ichki sekretsiya sistemasi deganda qanday sistemani tushunasiz?
2. Gormon nima?
3. Endokrin sistemasi bilan bog‘liq qanday kasalliklarni bilasiz?
4. Yuqorida holatdan Barno qanday chiqishi mumkin?

O‘quvchilar uchun metodik ko‘rsatmalar. Barnoning holatidagi belgilariga qarab bu qaysi tizimning buzilishi bilan bog‘liqligini eslash; gormonlarning organizmda ortishi yoki kamayishidagi kasalliklar haqida ma'lumotlarni aniqlash.

1-keys uchun o‘qituvching javob varianti. Organizmda moddalar almashinushi jarayonini boshqarib turuvchi gormonlar miqdorining o‘zgarishi oqibatida organizmda bir qancha noodatiy holatlar kuzatiladi. Barnoning vaziyati ham xuddi shu jarayon bilan bog‘liq bo‘lib, undagi



qalqonsimon bez funksiyasi kuchayishi hisobiga o'smirlarda uchraydigan tireotoksikozning belgilari kuzatilgan. Bu holatda u ichki sekretsiya bezlari kasallikkleri shifokori-endokrinologga murojaat qilishi lozim. Bundan tashqari unga ochiq havoda sayr qilish va aqliy mehnatni kamaytirish tavsiya etiladi.

2-keys topshirig'i. VAZIYAT. Sarvar bir yil davomida oyog'i singandan so'ng shifokor tavsiyasiga amal qilayotganligiga qaramay simishning tez-tez qaytalanayotganligi kuzatildi. Shifokor u bilan suhbatlashib unda yana qanday holatlar kuzatilayotganini so'radi. Shundan so'ng Sarvarga endokrinolog shifokor huzuriga ham murojaat qilishi kerakligini aytib o'tdi. Sizningcha Sarvarni nega endokrinolog shifokoriga ko'rinishini maslahat berdi? Sarvarning organizmida yana qanday holatlar bo'layotgan bo'lishi mumkin? Bu vaziyatga qanday fikr bildirasiz?

O'quvchilarning bilimini oshirish uchun savollar:

1. Qay holatlarda suyaklar mo'rtlashib qoladi?
2. Osteoklast hujayralari nima?
3. Osteoblast hujayralari nima? Bu hujayralalarning suyaklarni o'sishidagi roli.
4. Organizmda mineral tuzlar almashinuvini tartibga soluvchi sistema qaysi?

O'quvchilar uchun metodik ko'rsatmalar. organlar sistemasini nerv va gumoral yo'llari bilan boshqarilishini eslash, bu holatni gormonlar faoliyati bilan bog'liqligini eslash.

2-keys vaziyati uchun o'qituvchining javob variant. Odam organizmi nerv va gumoral yo'l bilan boshqariladi. Gumoral yo'l bilan boshqarilish gormonlar orqali amalga oshiriladi. Ma'lumki qalqon orqa bezlaridan ajralib chiqadigan paratgarmon garmoni odam organizmida kalsiy va fosfor almashinuvini tartibga solib turadi. Suyak to'qimasini yemiradigan osteoklastlar funksiyasini paratgarmon aktivlaydi. Bu gormon juda kamayib ketsa suyaklar yumshab egiluvchan mort bo'lib qoladi, qonda kalsiy miqdori kamayib ketadi. Mazkur vaziyatda Sarvarda soch to'kilishi, nerv-muskul sistemasida umumiyoq qo'zg'aluvchanlik ortib ketib tanada qaltirash kuzatildi. Bunda shifokor Sarvarga to'g'ri maslahat bergen va bunda unga endokrinolog yordami zarur.

Xulosa qilib aytganda, ta'limning sifati va uni tashkil etish usuli o'qituvchining mahoratiga, o'quvchining xohish-istagiga, qobiliyati va bilim darjasiga bog'liq. Bu metod o'quvchilarni voqealarni asosida mustaqil fikrlashga, bilim, ko'nikma va malakalarini faol hamda ongli sur'atda o'zlashtirishga yordam beradi.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. O.Mavlonov, T.Tilavov, B. Aminov "Biologiya" 8-sinf uchun darslik.
2. "Biologiya fanini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar" uslubiy qo'llanma.



TABIYY FANNI O'QITISHDA QIZIQARLI ARIFMETIKADAN FOYDALANISH

Pulatova Madina
Namangan viloyati Uchqo'rg'on tumani
30-sonli umumiy o'rta ta'lif maktabi
biologiya fani o'qituvchisi
Namangan viloyati Uchqorg'on tumani
"Barkamol avlod" bolalar makrtabi
"Mental arifmetika" to'garagi rahbari
Telefon:+998934998183
polotovnurigmail.com

Anotatsiya: Ushbu maqolada qiziqarli arifmetika berilgan bo'lib buni o'qituvchilar dars va mashg'ulotlarda dars va to'garaklarni mazmunli tashkil etishda foydalanishlari mumkinligi haqida aytigan.

Kalit so'z: qiziqarli arifmetika, Uraniya Diamondi, Muhammad al-Xorazmiy, Javobni oldindan aytish,javobi har doim 13!

Hayotimizda hisob kitoblarni tez amalgalash oshiradigan kimsalar "Geniylar" haqida tez-tez eshitib turamiz. Bunday kimsalar esa haqiqatda hayotimizda mavjud va ular katta-katta sonlarni hech qanday hisoblash mashinalarisiz og'zaki amalga oshira olishadi. Bunday insonlarni ,odatda, tug'ma qobiliyat egalari deb baholanadilar. Lekin shunday qobiliyat keyinchalik bizdan vujudga kelib qolganligini aytgan insonlar ham bor.

Savol tug'iladiki, bunday qobiliyat qanday yuzaga keladi? Ushbu qobiliyati mavjud insonlar doimiy raqam va sonlar ustida mashq olib borishadimi? Noyob qobiliyat egalarining hammasi ham hayotda aqlli insonlarmi?

Yo'q bunday qobiliyat egalarining barchasi ham o'qimishli insonlar bo'limgan. Tezkor hisobning qirollari hisoblangan ba'zi kimsalar bu holatga turlicha izoh berishgan.

Uraniya Diamondi sonlarni ranglar timsolida ko'rgan: 0-oq, 1-qora, 2-sariq, 3-qizil, 4-jigarrang, 5-ko'k, 6-toq sariq, 7-och ko'k, 8-yorqin moviy, 9-to'q jigarrang. U hisoblash jarayonini ranglarning tunganmas simfoniyasi yordamida amalga oshirgan.

Monde va Kolburn ko'z o'ngida sonlarni kumdir chizib berishini aytgan. Ular shu sonlarni o'qib berish bilan cheklanishlarini bildirganlar.

Psixologlar xotiraning ushbu kamyoob xususiyatini ilmiy til bilan "gipermneziya" deb atashadi va bu qibiliyatni ma'lum ma'noda o'z-o'zini tarbiyalash, ya'ni tizmli mashqlar qilishga ham bog'liq deyishadi. Sonlar olamida uzoq vaqt kezib yurgan odamlar ular orasidagi bog'liqliklar uyg'unliklarini ilg'ab olishgan va bu ularga hisoblash vaqtini tejash imkonini bergen.

Muhammad ai-Xorazmiy 20 dan ziyod ilmiy asarlar muallifi bo'lgan, ulardan 7 tasi bizning davrimizgacha saqlanib qolgan. Jumladan: "Fi hisab al Hind"- o'nlik pozitsion hisoblash tizimini ifodalovchi va nol belgisi bor to'qqizta raqamni bayon etuvchi asar.

Sizlarga darslarda o'quvchilar qiziqishini ortirish uchun bir nechta qiziqarli mashqlardan keltirib o'tamiz

Qiziqarli mashq:Javobni oldindan aytaman!

Mazkur mashqda yuqoridaq 9 va 9 lardan tashkil topgan sonlarning xususiyatidan foydalanilgan. Bunda siz boshqaruvchi bo'lasiz va sizni (B) deb belgilab olamiz. Sizning mashg'ulotingizda qatnashayotgan ishtirokchi (I) deb belgilab olamiz.

(I)-5628

Siz darxol kerakli sonni, ya'ni 5628 soninig oxirgi raqami 8 dan 2 ayirib, qolgan sonning oldiga qo'yib daftarga 25626 sonini hosil qilib qo'yasiz va uni ishtirokchilardan sir tutasiz. Ishtirokchidan yana bir ixtiyoriy to'rt xonali son yozishni talab qilasiz va yozilgan sonning har bir raqamini 9ga tenglovchi to'rt xonali sonni mos ravishda tagidan yozib chiqasiz. Shu xolatni yana bir marta takrorlaysiz va ishtirokchidan barcha sonlarni qo'shib chiqishini talab qilasiz. U barchasini qo'shib chiqqanda siz daftarga yozib qo'ygan son 25626ni ko'rsatasiz. Ya'ni siz uni oldindan aytgan bo'lasiz.

Agar ishtirokchi yozgan son 9lardan iborat bo'lsa, siz yozmaslikni ma'qul ko'rasiz.

Tushuntirish. Ishtirokchi birinchi yozgan sonning oxirgi raqamidan 2 ayirib , to'rt xonali



sonning boshiga yozib qo‘yiladi. Bu esa ishtirokchi yozgan songa 19998 ni qo‘shilganini bildiradi. Biz bu 19998 sonini ishtirokchining ikkinchi va uchinchi yozgan sonlarini 9999 ga tenglash orqali hosil qildik.

Ishtirokchi qanday son yozmasin natijani biz doim oldindan aytib bera olamiz!

Qiziqarli mashq: Javob har doim 13!

Mazkur mashqda yuqoridagi bosh va oxirigi 1 raqamidan iborat va oraliq raqamlari n-1 ta noldan tashkil topgan sonlarni n xonali songa ko‘paytirishning qulay usulidan foydalanamiz.

Ushbu mashqda siz ishtirokchiga istakgan uch xonali son o‘ylashini aytasiz va o‘ylagan sonning ketidan o‘sha sonni qayta yozishini so‘raysiz. Hosil bo‘lgan olyi xonalu sonni 7 ga bo‘lishini aytasiz. Chiqqan natijani yana avval 11 ga va dastlabki o‘ylagan uch xonali songa bo‘lishini aytasiz. Natija har doim 13 chiqadi!

Misol uchun ishtirokchi 225 sonini o‘ylagan bo‘lsin.

- 1) 225
- 2) 225225
- 3) $223225:7=32175$
- 4) $32175:11=2925$
- 5) $2925:225=13$

Siz istalgan uch xonali sonni o‘ylang javobi har doim13 chiqadi.

Tushuntirish. Ishtirokchi o‘ylagan uch xonali sonni ortidan yana o‘sha uch xonali sonni yozish o‘sha sonni 1001ga ko‘paytirdi degani. 1001 esa $1001=7*11*13$ ko‘paytma degani. Ishtirokchi hosil bo‘lgan 6 xonali sonni ketma –ket 7,11 va dastlabki o‘ylagan uch xonali songa bo‘lmoqda. Natijada esa 13 qolmoqda.

Mana ustozlar ushbu qiziqarli arifmetikadan darslarni qiziqarli va mazmunli tashkil etishda, fanlararo bog‘lashda foydalanish mumkin. Shunda o‘quvchilarni qiziqishlari yanada ortadi.

Mazkur qiziqarli arifmetika sizga ta’lim jarayonida juda ham foydali. Chunki undagi berilgan misollar darsdagi hisob vaqtida o‘quvchilarning faolligini oshiradi. Xususan tabiiy fanlarni o‘qitishda joriy ko‘rsatmalar yordamida interfaol usullar ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etish xam mumkin.

Keyingi mavzularimizda yana ham qiziqarli mashqlarni berib boramiz.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Tezkor arifmetika, Jamshidjon Nizomiddinov, “Farg‘ona” nashryoti 2019 yil.
2. WWW.Ziyonet.uz



BIOLOGIYA DARSLARIDA O'QITISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYASI. KEYS-STADI METODI

*Samarqand viloyati Paxtachi tumani 24-umumi o'rta talim maktabi
Qurbanova Salima Sa'dinovna biologiya fani o'qituvchisi.*

Annotatsiya: Maqlada zamonaviy amaliy tadqiqotlar texnologiyasidan biologiya darslarida foydalanishning ahamiyati tasvirlangan. Muammoni shakllantirish va uni hal qilish variantlarini izlash, so'ngra sinfda tahlil qilish. Texnologiyaning maqsadi har bir o'quvchiga eng kerakli bo'lgan bilimlarni o'zlashtirishning o'ziga xos usulini aniqlashga yordam berishdir.

Kalit so'zlar: amaliy tadqiqotlar, hodisa usuli, vaziyat, tahlil, ish, munozara, muammo.

«Biologiya» faniga nafaqat biologik bilimlarning o'zi, balki falsafiy, ijtimoiy tabiat, emotsiyonal va axloqiy kategoriylar, texnika muammolari, atrof-muhitni muhofaza qilish, inson salomatligi va boshqa ko'plab asosiy masalalar doirasidan tashqariga chiqadigan ma'lumotlar kiradi. Biologiya fanidan o'quv mashg'ulotlari maktab tarbiyasining zaruriy tarkibiy qismi - o'quvchining shaxsiyatining tizimli predmetli bilimlari, shaxsnинг insonparvarlik qadriyat yo'nalishlari, hozirgi kelajakdag'i xulq-atvorning asosi sifatida o'zini o'zi anglash va o'zini o'zi targ'ib qilish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan muhit sifatida qaralishi kerak. ...

Hayotda har bir insonga biologiya sohasidagi bilim va ko'nikmalar, shu jumladan tadqiqot xarakteridagi bilim va ko'nikmalar kerak. So'nggi paytlarda fikrlash, ijodkorlik va muloqot mantig'ini rivojlantirish uchun turli texnologiyalardan faol foydalanmoqdalar.

Keys metodi - bu real vaziyatlarga asoslangan faol ta'lim usuli, vaziyatni tahlil qilish usuli. Keys metodining mohiyati - o'quv jarayonida muayyan o'quv vaziyatlaridan foydalanish, o'quvchilarni muammoni shakllantirishga yo'naltirish va uni hal qilish variantlarini izlash, so'ngra sinflarda tahlil qilish. Texnologiyalarning maqsadi har bir o'quvchiga eng kerakli bilimlarni o'zlashtirishning o'ziga xos usulini aniqlashga yordam berishdir. Shunday qilib, o'quvchining o'z-o'zini tarbiyalashida bugungi kunda talablarga javob beradigan chiqish mavjud.

Ishlar quyidagicha tasniflanadi:

- amaliy holatlar: vaziyatni tahlil qilish usuli yoki ishbilarmonlik yozishmalar usuli. Ushbu holatlar kiritilgan vaziyatni yoki ishni iloji boricha haqqoniy aks ettirishi kerak;

-o'quvchini tadqiqot faoliyatiga qo'shishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar yoki voqealar usuli.

Voqealar usuli: Ushbu usulning o'ziga xos xususiyati shundaki, o'quvchi o'zi qaror qabul qilish uchun ma'lumot topadi.

Vaziyatli tahlil usuli: eng keng tarqalgan usul, chunki bu murakkab vaziyatni chuqur va batafsil o'rganishga imkon beradi. Keys usuli biologiya darslarida muvaffaqiyatli qo'llanilishi mumkin, chunki bu usul murakkab va barcha turdag'i tadqiqot ishlarini o'z ichiga oladi.

Keys metodining muvaffaqiyati ko'p jihatdan o'qituvchining metodik mahoratiga, uning mazmunini aniqlay olish va unga mos materialni tanlash qobiliyatiga bog'liq. Natijada o'quvchilar mustaqil ravishda o'qituvchi nazorati ostida taqqoslash, umumlashtirish, xulosalar chiqarish, baholash va tahlil qilish, muammoli vaziyatlarni hal qilish va nostandard vazifalarni hal qilish, murakkab sharoitlarda amaliy harakatlarni bajarish.

Adabiyotlar:

1. G'anieva M.A., Fayzullaeva D.M. Keys-stadi Literature pedagogika texnologiyalari to'plami. Allanma metodologiyasi. "O'rta mahsus, kasb-hunar talimi tizimida innovatsion texnologiyalar" .- T.: TDIU, 2013.-B.95.

2. Tolipov O.K., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya - tatbiqiy asoslari. - Toshkent., 2006.

3. <http://www.ziyonet.uz>



ÒQUVCHILARNING BIOLOGIYA DARSLARIDA ,QIZIQISHINI OSHIRISH USULLARI

*Yuldasheva Dilfuza G'aniyevna
Andijon viloyati Buloqboshi tumani
32-maktabning biologiya fani o'qituvchisi*

Anatatsiya : "Zakovat " , "Zinama -zina " kabi intelektual öyinlarni andoza qilib olish , òquvchilarning mantiqiy , aqliy , ijodiy , tanqidiy , mustaqil fikrlashga yordam berish . Xotirani mustaxkamlash usuli , kamchiliklarni bartaraf qilish va darsga ijodiy yondashish.

Kalit sözlar : xususiy biologik tushunchalar, biologiya , evolýutsiya va ekologiya , zinama -zina , zakovat , aqliy xujum , interfaol ta'lif , inavatsion yondashuv

Biologiya darslarida òquvchilarning qiziqishini oshirish usullari. Òquvchilarning òzlashtirgan bilimlarini umumlashtirish , ularning javoblaridagi tipik xatoliklarni aniqlash va ularga barxam berish kerak. Òzlashtirilgan bilimlar asosida òquvchilarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, ma'naviy -axloqiy tarbita berish , òquvchilarning umumiyligi va xususiy biologik tushunchalar, darslik va qoshimcha adabiyotlar ustida mustaqil ishlash, mustaqil fikr yuritish königmalarini , nutq va muloqat madanyatini rivojlantirish , innovatsion texnologiyalar orqali òquvchilarning fanga bølgan qiziqishi östiriladi , òquvchilar oлgan bilimlari königmaga aylantiriladi, bilim sifat-samaradorligi oshiriladi.Loyihani amaliyotda qöllashga oid vositalar :proyektor, ekran, noutbuk, rangli qoғozlar, rangli markerlar, bir boǵlam ip, öyinchoq

Oquvchilarga mantiqiy , aqliy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashga yordam beriladi.Biologiya darslarida ösimliklar bilan ishlash königmalarini shakllanadi .Mavzuni oson tushinish va atamalarni puxta örganish imkonini beradi, öz faoliyati natijalariga mas'uliyat va qiziqish uyğotadi, özgalar fikriga hurmat bilan qarash, jamoa bilan ishlash mahorati, faoliyat, xushmuomalalik, ijodiy yondashuv, „men“ini ifodalashga imkon beradi. Òqituvchi va òquvchi òrtasida döstonha muhit yaratiladi

Òquvchilar biologiya darslarida oлgan bilim va königmalarini rivojlantirib, bu usul orqali öxshash tomonlari va farqlarini ajrata olishni örganadilar. Dars jarayonida òquvchilarga mavzuni yanada oson va qiziqarli tarzda tushunishda quydagi metodik usullar yordam beradi.

Birinchi bosqich -òquvchilarning òquv fani bøyicha tushuncha , góyalar va atamalarni òzlashtirish darajasini aniqlash. Buning uchun òqituvchi darslikda berilgan atamalar izohidan foydalanib , 3 xil variantda 30 tadan atamalar majmuasini tuzadi.Atamalar yonida uning izohi bølishi shart. Òqituvchi bu bosqichda òquvchilarni 6 nafardan iborat kichik guruhlarga ajratadi. Har bir guruh "Atamalar varagi"ning variantini tanlab oladi.

Biologiya fanida berildigan bilimlarning deyarli barchasi hayot bilan boǵlangan.Atrof -muhitni muhofaza qilish , siyosiy , iqtisodiy soha bøyicha davlat qarorlari biologik bilimlarini hayotga boǵlashga asos bøladı. Masalan, Organizmlarning muhit sharoitiga xususiy moslashishi mavzusida atmosfera havosini muhofaza qilish va qoriqlash bøyicha davlat qarorlariga suyanmoq lozim. Özbekiston iqtisodiy va ijtimoiy sharoitini örganishda mamlakatimiz prezidenti asarlari , davlat qarorlariga asoslanmoq lozim. Mazkur materiallardan dars jarayonida foydalanish uchun mavzu mazmuniga mos bølgan mal'umotlarni topmoq lozim.

Darsning kasbga yönaltirilganligi.Biologik bilim va königmalarini egallash jarayonida òquvchilar juda kòp kasblar bilan tanishadilar .Masalan, " Boshlang'ich tabiiy biologiya" kursida " Evolýutsiya asoslari " mavzusi ötilganida arxeolog kasbi haqida , darslarida iqtisodichi va amaliy biologiya darslarida biyolog va boshqa kasblar haqida bilim va mal'umotlar beriladi. Bundan tashqari har bir organizmni tekshirilish tarixini òrganganda , sayyoohlар va olimlar haqida ham mal'umotlarni beradi. Olimlar kasbi haqidagi mal'umotlar turli hil qonun , jurnal va gazeta yangiliklari bilan doim tanish ekanini körishlari shart.Agar òqituvchi maktab Kutubxonasida mavjud bølgan barcha biologik adabiyotni hisobga oлgan bølsa, òquvchilarning biologiyadan sinfdan tashqari òqishlariga raxbarlik qilishi

Foydalanilgan adabiyotlar;

1. Biologiya .2016 yil.. Biologiya fanini òqitilishi . Metodik qöllanma ; qiziqarli biologiya .



ГИПОТЕРИОЗДА БОШ МИЯ НЕЙРОМЕДИАТОРЛАРИ РЕЦЕПТОРЛАРИГА НИСБАТАН АУТОАНТИНАЧАЛАР МИҚДОРИНИНГ ЎЗГАРИШИ

Муминова Г.А.
Андижон давлат тиббиёт институти
Телефон: 97-346-15-83
e-mail: guyoqotminova@gmail.com

Аннотация: Организмда тиреоид гормонлар етишмовчилигига сезувчанлиги энг юқори аъзо бош мия хисобланади. Нейромедиаторлар рецепторларига нисбатан аутоантитаначаларни аниқлаш нейродегенератив жараёларни эрта ташхислаш ва бу орқали гипотериоз касалликларида бош мия фаолиятидаги ўзгаришлар ва психик бузилишларни тушунтиришга ёрдам беради.

Калит сувлар: экспериментал гипотериоз, аутоантитаначалар, нейромедиаторлар рецепторлари, нейропротектор, L-тироксин.

Мақсад: экспериментал гипотериозда қон зардобида глутамат рецептори, дофамин рецептори, ГАМК – рецептори, опиат рецепторлар, серотонин рецептори, ацетилхолин рецептори ва β-эндорфинга нисбатан аутоантитаначалар кўрсаткичлари ўзгаришларига L-тироксин ва нейропротекторлар таъсирини аниқлашдан иборат.

Материал ва усуллар: Тадқиқотда мақсадга эришиш учун 120 та оқ зотсиз каламушларга 2,5 мг/100 г дозада мерказолил 21 кун давомида меъда ичига киритилиш йўли билан гипотериоз холати моделлаштирилди. Сўнг гурухларга бўлиб каламушларнинг бир қисмига яна мерказолил бериш давом эттирилди, қолганлари 10 кун давомида L-тироксин; L-тироксин ва «нейромак»; L-тироксин ва «сомазина» препаратлари билан корекция қилинди. Иммунофермент таҳлил усулида «ЭЛИ-Н-Тест» тўплами (Россия) ёрдамида каламушлар қон зардобида Glu-R, DA-R, GABA-R, m-OR, Ser-R, Chol-R ва β-end га нисбатан аутоантитаначалар микдори аниқланди.

Натижалар: Экспериментал гипотериозда нейромедиаторлар рецепторларига нисбатан аутоантитаначалар микдори 21-кун (II гурух) ва 30-кунларида (III гурух) интакт гурух кўрсаткичларига нисбатан ишончли ортди. I гурух – интакт каламушларда барча рецепторларга нисбатан иммунореактивлик -20%...+10% оралигига меъёрида эканлиги қайд қилинди.

21 кунлик гипотериоз моделлаштирилган II гурух каламушларда эса барча кўрсаткичлар меъёрий кўрсаткичлардан баланд эканлиги аниқланди. Энг юқори кўрсаткичлар глутамат (Glu-R) ва серотонин (Ser-R) рецепторлари учун хос бўлиб, мос равища 28,33% ва 28,83%ни ташкил этди. Энг кам ўзгаришлар опиат рецептори(m-OR) ва β-эндорфин(β-end)га нисбатан аниқланиб, уларга нисбатан аутоантитаначалар кўрсаткичлари 14,83% ва 14,67%ни ташкил қилди.

30 кунлик гипотериоз моделлаштирилган III гурух каламушларда серотонин рецептори (Ser-R)га нисбатан аутоантитаначалар микдори қисман камайди, қолган аутоантитаначалар кўрсаткичлари эса ортди. Лекин, барча кўрсаткичлар меъёрдан юқорилигича сақланиб қолди. Бунда энг юқори кўрсаткичлар ГАМК – рецептори (GABA-R), глутамат рецептори (Glu-R), дофамин рецептори (DA-R) учун тегишли бўлиб, уларга нисбатан иммунореактивлик мос равища 55,5%; 48,83% ва 46% ни ташкил этди.

L-тироксин билан даволанган IV гурух каламушларда нейромедиаторлар рецепторларига нисбатан аутоантитаначалар микдорининг қисман пасайиши кузатилди. Лекин аутоантитаначалар микдори меъёрий кўрсаткичларидан юқорилигича сақланиб қолди.

Нейромак ва сомазина препаратлари L-тироксин билан бирга юборилган V ва VI гурух каламушларда эса аутоантитаначалар микдори сезиларли пасайиши аниқланди. Лекин ушбу препаратлар ҳам аутоантитаначалар микдорини тўлиқ меъёрлаштирумади. L-тироксин билан ушбу нейропротекторларни комбинациялашган таъсири L-тироксинни таъсиридан самаралироқ таъсир кўрсатди.

Хулоса: Тадқиқот натижаларига кўра, нейромедиаторлар рецепторларига нисбатан аутоантитаначалар микдорининг ортиши гипотериозда иммун тизим функциясидаги патогенетик ўзгаришлар, когнитив бузилишлар ҳамда нейродегенератив жараёнлардан дарак



беради ва ушбу ўзгаришларни коррекциялаш мақсадида L-тироксин билан бирга нейро-протектор препарат кўллаш мақсадга мувофиқдир.

Фойдаланилган адабиетлар руйхати:

1. Полетаев А.Б., Алферова В.В., Абросимова А.А., Комиссарова И.А., Соколов М.А., Гусев Е.И. Естественные нейротропные аутоантитела и патология нервной системы // Нейроиммунология. – 2003. – №1. – С.11-17.
2. Прохорова А.В. Посттравматическая эпилепсия у детей: особенности патогенеза варианты клинического течения, терапевтические подходы. Док.дисс. – Ташкент, 2011. – С.206-214.
3. Расулова Х.А., Азизова Р.Б. Естественные нейротропные аутоантитела в сыворотке крови больных, страдающих эпилепсией // Вестник РАМН. – 2014. – № 5-6. – С.111–116.
4. Феликс Хусаинович Камилов, Валерий Николаевич Козлов, Тимур Ирекович Ганиев, Ренат Рамизович Юнусов. Влияние экспериментального гипотиреоза на метabolизм костной ткани и минеральный обмен. // Казанский медицинский журнал. - 2017., том 98, №6, С.971-975.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 22-КҮП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(22-қисм)

**Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳих: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев**

Эълон қилиш муддати: 30.11.2020

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000